



UDK:94(575.1):338.2(575.1)"1930/1960"

*Feruz QAYUMOVA,*  
*FarDU, O'zbekiston tarixi kafedrasida o'qituvchisi*  
*E-mail: fqayumova1983@gmail.*  
*ORCID ID 0000-0002-0816-4208*

*FarDU dotseni, PhD Sh.Ohunjonova taqrizi asosida*

### HIDDEN ACTIVITIES OF LOCAL MARKETS IN THE FERGANA VALLEY (1930–1960)

Annotation

This article analyzes the hidden activities of local markets in the Fergana Valley during 1930–1960 and their socio-economic determinants. The research is based on archival materials, normative-legal documents, and a comparative historical approach. The findings demonstrate the emergence of clandestine trade channels, informal price-setting mechanisms, and intermediary practices. The scientific contribution lies in reinterpreting the market as an institution.

**Keywords:** Fergana Valley, hidden market, informal trade, supply shortages, intermediation, pricing practices, social adaptation

### СКРЫТАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МЕСТНЫХ РЫНКОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ (1930–1960 ГГ.)

Аннотация

В статье анализируется скрытая деятельность местных рынков Ферганской долины в 1930–1960 гг. и её социально-экономические факторы. Исследование основано на архивных материалах, нормативно-правовых документах и сравнительно-историческом подходе. Результаты показывают формирование теневых торговых каналов, неформальных механизмов ценообразования и посреднических практик. Научная новизна заключается в переосмыслении рынка как института.

**Ключевые слова:** Ферганская долина, скрытый рынок, неформальная торговля, дефицит снабжения, посредничество, практики ценообразования, социальная адаптация

### 1930-1960-YILLARDA FARG'ONA VODIYSI BOZORLARIDAGI YASHIRIN SAVDO FAOLIYATI HAQIDA

Annotatsiya

Maqolada 1930-1960-yillarda Farg'ona vodiysida mahalliy bozorlaridagi yashirin savdodegi mahsulotlar va uning ijtimoiy-iqtisodiy omillari tahlil qilinadi. Tadqiqot arxiv materiallari, normativ-huquqiy hujjatlar va qiyosiy tarixiy yondashuvga tayangan. Natijalar yashirin savdo kanallari, norasmiy narx belgilash va vositachilik amaliyotlari shakllanganini ko'rsatadi. Ilmiy hissa bozorni institut sifatida qayta talqin qilishdadir.

**Kalit so'zlar:** Farg'ona vodiysi, yashirin bozor, norasmiy savdo, ta'minot tanqisligi, vositachilik, narx amaliyotlari, ijtimoiy moslashuv.

**Kirish.** Ta'kidlash joizki, yashirin iqtisodiyot muammosi tarixiy ildizlarga ega bo'lib, uning shakllanish jarayonlarini o'rganish bugungi kun uchun ham dolzarbdir. Bu borada Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "yashirin iqtisodiyotni qisqartirish, barcha iqtisodiy faoliyatni qonuniy maydonga olib chiqish – bugungi kunda oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biridir"[1]. 1930–1960-yillar oralig'i Farg'ona vodiysi ijtimoiy-iqtisodiy tarixida bozor munosabatlarining keskin qayta tartibga solinishi, resurslar taqsimotining markazlashuvi va kundalik hayotning ta'minot tizimlariga bog'lanib qolishi bilan ajralib turadi. Mazkur sharoitda "bozor" tushunchasi faqat rasmiy savdo maydonlari bilan cheklanmay, turli darajadagi norasmiy va yashirin almashinuvlar, vositachilik, xizmat evaziga xizmat, qarz va "tanishtirish" orqali resurs topish kabi amaliyotlarni ham o'z ichiga olgan murakkab institut sifatida namoyon bo'ladi. Farg'ona vodiysi aholi zichligi, agrar-ixtisoslashuv, hunarmandchilik an'analari, shahar va qishloq o'rtasidagi muntazam oqimlar hamda transport yo'laklariga yaqinligi tufayli yashirin bozor faoliyati shakllanishi va barqarorlashuvi uchun qulay makon bo'lgan. Shunga qaramay, ushbu davr bozorlarining yashirin qatlamini tarixiy dalillar asosida, institutsional va sistematik tahlil qilish mahalliy tarixshunoslikda yetarli darajada emas.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mavjud ilmiy adabiyotlarda sovet davri ta'minot siyosati, qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar, maishiy iste'mol va "yashirin iqtisodiyot" masalalari umumiy miqyosda yoritilgan bo'lsa-da, Farg'ona vodiysi kesimida 1930-1960-yillar bozorlarining yashirin faoliyati, uning ichki tuzilmalari, ishtirokchilar tarmoqlari, narxlar amaliyoti va ijtimoiy legitimatsiya mexanizmlari ko'pincha parcha-parcha ko'rinishda uchraydi. Tadqiqot muammosi shundan iboratki, bozorning yashirin segmenti faqat huquqbuzarlik yoki tanqislikka javob sifatida emas, balki muayyan "qoidalar", ishonch munosabatlari, axborot aylanishi va havf-hatarni taqsimlash usullari bilan ishlagan ijtimoiy institut sifatida qayta ko'rib chiqilmasa, davr iqtisodiy hayotining muhim qismi tushunarsiz qoladi. 1930-1960-yillarda Farg'ona vodiysida mahalliy bozorlarning yashirin faoliyati qanday sharoitlarda yuzaga kelgani, qanday kanallar orqali ishlagani va qanday ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarganini tarixiy manbalar asosida tahlil qilish muhimdir. Shu maqsadda, yashirin savdoning paydo bo'lishini rag'batlantirgan ta'minot va narx muhitini aniqlash; ikkinchidan, yashirin bozor ishtirokchilari va vositachilik tarmoqlarining ko'rsatish; uchinchidan, mahsulot guruhlari va almashinuv shakllarini tizimlashtirish; to'rtinchidan, yashirin bozorning rasmiy iqtisodiyot bilan tutashuv nuqtalarini va

ijtimoiy moslashuvdagi rolini baholash kabi masalalar katta ahamiyatga ega.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqola metodologik jihatdan ijtimoiy-iqtisodiy tarix, kundalik hayot tarixi va institutsional yondashuv kesishmasiga tayanadi. Asosiy nazariy tayanch sifatida norasmiy iqtisodiyot va yashirin iqtisodiyot tushunchalari qo'llanib, ularning mahalliy sharoitdagi ko'rinishlarini ilmiy materiallar bilan o'rganish ko'zda tutiladi. Bu yondashuv bozorni faqat rasmiy savdo instituti sifatida emas, balki qoidalar, ishonch, axborot va havf-hatarni boshqarish usullaridan tashkil topgan ijtimoiy mexanizm sifatida ko'rishga imkon beradi.

Sotsializm sotsialistik ijtimoiy munosabatlar rivojlanib borgan sari, jamiyat a'zolari barkamol bo'lib boradi va natijada jinoyatchilik borgan sari kamayib boradi, degan nazariya hukmron edi. 1959-yili qabul qilingan Jinoyat kodeksi ana shu nuqtai nazardan ishlab chiqilgan edi. Aslida esa Sovet ittifoqida sotsialistik ijtimoiy munosabatlar shakllanmay, jamiyatda ma'muriy buyruqbozlik tizimi hukmron edi. Bunday sharoitda jinoyatchilik kamaymadi, sotsialistik ijtimoiy munosabatlar rivojlanmadi. Jamiyatning inqirozi chuqurlashib bordi. Agar bozor iqtisodiyoti tizimida "Mulkdorlar sinfini shakllantirish" ochiqdan-ochiq e'lon qilingan va jamiyatda qonuniy hodisa hisoblansa, sovet davrida esa bunday holat yashirin bo'lib, o'z-o'zidan jinoyatni tug'dirib turar edi. Hatto, insonlar o'rtasida asrlar osha bo'lib turgan iqtisodiy munosabatlar – shaxslarning xususiy savdo (chayqovchilik) bilan shug'ullanishi, xususiy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati jinoyatchilik hisoblanib, qonun yo'li bilan ta'qiqlab qo'yilgan edi[2.]. Empirik manbalar bazasi uch turdagi materiallardan iborat bo'ldi: birinchisi, 1930-1960-yillarga oid ta'minot, savdo va nazorat amaliyotlarini tartibga solgan normativ hujjatlar va yo'riqnomalar; ikkinchisi, mahalliy boshqaruv va nazorat organlarining hisobotlari, tekshiruv materiallari va ma'lumotnomalari; uchinchisi, davr matbuoti va esdalik-yozma manbalarda uchraydigan bozor amaliyotlariga doir kuzatishlar. Shuningdek, vaqt bo'yab qiyosiy tahlil usuli asosida 1930-yillar boshidagi tartibga solish sharoitlari, urush yillari taqchilligi va 1946-1960-yillardagi tiklanish hamda qayta muvozanatlashuv jarayonlari alohida davriy kesimlarda ko'rib chiqildi.

**Tahlil va natijalar.** Tahlil jarayonida sifatli kontent-tahlil usuli yordamida "yashirin savdo kanali", "vositachilik", "norasmiy narx", "tovarni yashirish", "aylanma almashinuv" kabi kategoriyalar tahlil qilindi. Mikroanalitik yondashuv, ya'ni mahalla, bozor atrofida savdo nuqtalari, transport tugunlari singari lokal makonlarda kuzatilgan amaliyotlarni alohida holat sifatida o'qish orqali umumiy mexanizmlarni ajratish maqsadida qo'llanildi. Ushbu usullar tanlovi tadqiqot maqsadiga mos ravishda yashirin bozorning tashqi ko'rinishidan ko'ra ichki ishlash mantig'ini, ishtirokchilarning motivlari va cheklovlar sharoitidagi moslashuv strategiyalarini ochib berishga xizmat qiladi [2; 6; 8]. Sotsializm sotsialistik ijtimoiy munosabatlar rivojlanib borgan sari, jamiyat a'zolari barkamol bo'lib boradi va natijada jinoyatchilik borgan sari kamayib boradi, degan nazariya hukmron edi. 1959-yili qabul qilingan Jinoyat kodeksi ana shu nuqtai nazardan ishlab chiqilgan edi. Aslida esa Sovet ittifoqida sotsialistik ijtimoiy munosabatlar shakllanmay, jamiyatda ma'muriy buyruqbozlik tizimi hukmron edi. Bunday sharoitda jinoyatchilik kamaymadi, sotsialistik ijtimoiy munosabatlar rivojlanmadi. Jamiyatning inqirozi chuqurlashib bordi. Agar bozor iqtisodiyoti tizimida "Mulkdorlar sinfini shakllantirish" ochiqdan-ochiq e'lon qilingan va jamiyatda qonuniy hodisa hisoblansa, sovet davrida esa bunday holat yashirin bo'lib, o'z-o'zidan jinoyatni tug'dirib turar edi. Hatto, insonlar o'rtasida asrlar osha bo'lib turgan iqtisodiy munosabatlar – shaxslarning

xususiy savdo (chayqovchilik) bilan shug'ullanishi, xususiy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati jinoyatchilik hisoblanib, qonun yo'li bilan ta'qiqlab qo'yilgan edi[3;16]. Natijada Farg'ona vodiysida 1930-1960-yillarda yashirin bozor faoliyati bir martalik og'ish emas, balki resurs taqsimoti va ta'minot uzilishlari kuchaygan sari barqarorlashgan amaliyotlar majmuasi bo'lganini ko'rsatadi. Yashirin savdoning paydo bo'lish sharoitlarining markazlashgan ta'minot kanallari orqali yetib keladigan iste'mol tovarlari va ayrim oziq-ovqat mahsulotlari hajmi aholi ehtiyojiga mutanosib bo'lmaganda, rasmiy narx va norasmiy qiymat o'rtasida tafovut paydo bo'lgan. Aynan shu tafovut yashirin bozorda yuz berishi mumkin bo'lgan havf-hatarni oqlaydigan "mukofot"ni ya'ni foydani shakllantirib, vositachilik va yashirin olib-sotarlikni rag'batlantirgan. Vodiyning shahar markazlari va ularga tutash qishloq hududlari o'rtasida kundalik qatnovning yuqoriligi yashirin almashinuvni logistika jihatidan yengillashtirgan.

Manbalar tahlili bo'yicha yashirin bozor ishtirokchilarini uch asosiy guruhga ajratish mumkin: ishlab chiqaruvchi yoki yetishtiruvchi qatlam (dehqon xo'jaliklari, tomorqa egalari, hunarmandlar), tashuvchi va vositachi qatlam (bozorga olib kirish, yashirish, bo'lib sotish, xaridor topish bilan shug'ullangan shaxslar) hamda iste'molchi qatlam (xodimlar, shaharlik oilalar, mavsumiy ishchilar). Ushbu guruhlar o'rtasida barqaror ishonch mexanizmlari shakllangan: tanish-bilish orqali kafolat, qarzga berish va keyin qoplash, mahsulotni bo'lib berish, "navbat" va "ulush" kabi norasmiy qoidalar amalda ishlagan. Bu holat yashirin bozorni faqat anonim savdo emas, balki ijtimoiy tarmoq ichida boshqarilgan almashinuv tizimi sifatida ko'rsatadi.

Yana bir jihati tovar guruhlari va almashinuv shakllarining davriy o'zgaruvchanligidir. 1930-yillarda qayta taqsimot kuchaygan sari kundalik iste'mol tovarlari, don va yog' mahsulotlari, kiyim-kechak va oddiy xo'jalik buyumlari yashirin savdoda muhim o'rin tutgan. Urush yillarida esa taqchillik keskinlashgani sababli oziq-ovqat, kiyim, oyoq-kiyim, shuningdek, ishlab chiqarish va ta'mirlash uchun zarur mayda-chuyda materiallar bozorning yashirin segmentida alohida qadrlangan. 1946-1960-yillarda rasmiy savdo tarmog'i tiklana boshlagan bo'lsa-da, yashirin bozor to'liq yo'qo'lmagan; aksincha, u rasmiy tizim bilan yonma-yon yashab, ayrim tovarlar bo'yicha tezkorlik, moslashuvchanlik va tanqis paytida "zaxira" funksiyasini bajargan. Almashinuv shakllari naqd pul savdosidan tashqari, barter, xizmat evaziga tovar, qarz va ulushli kelishuv ko'rinishida bo'lgan.

Rasmiy narx barqaror deb e'lon qilingan vaziyatlarda ham, yashirin bozorda narxlar mavsumiylik, transport xarajati, nazorat intensivligi va axborot yetishmovchiligi kabi omillar ta'sirida o'zgarib turgan. Ayniqsa, nazorat kuchaygan davrlarda narxning norasmiy "ustama"si oshgan. Narx kelishuvi ko'pincha ochiq savdolashuvdan ko'ra, oldindan kelishilgan ishonch kanallari orqali amalga oshgan, bu esa bozorning yashirin segmentida axborotning strategik resurs ekanini ko'rsatadi.

Yashirin bozorning rasmiy iqtisodiyot bilan tutashuv nuqtalarini aniqlashtirish maqsadida tahlil qilingan materiallar ayrim hollarda rasmiy savdo nuqtalari, omborlar, transport tizimi va xizmat ko'rsatish sohalari yashirin almashinuv bilan bevosita yoki bilvosita bog'langanini ko'rsatadi. Bu bog'lanishlar har doim ham bevosita "qora" operatsiya shaklida bo'lmagan; ko'pincha rasmiy kanalning sekinligi yoki taqsimotdagi nomuvofiqliklar norasmiy "tezlatkich" mexanizmlarni keltirib chiqargan. Natijada yashirin bozor rasmiy tizimdagi uzilishlarni yumshatadigan, lekin bir vaqtning o'zida rasmiy tartibga solishning samaradorligini pasaytiradigan paradoksal rol o'ynagan.

Farg'ona vodiysidagi yashirin bozorni oddiy "qonunbuzarlik" doirasida izohlash yetarli emas balki u ko'proq cheklovlar iqtisodiyoti sharoitida yuzaga keladigan moslashuv instituti vazifasini bajargan desak to'g'riroq bo'ladi. Norasmiy iqtisodiyot haqidagi nazariy qarashlarda tanqislik va ma'muriy narxlar tafovuti yashirin almashinuvni rag'batlantirishi qayd etiladi[7]. Bizning materiallar ham aynan tafovutning iqtisodiy motiv sifatida ishlaganini tasdiqlaydi, biroq vodiyning o'ziga xosligi shundaki, aholi zichligi va shahar-qishloq integratsiyasi yashirin bozorni tezroq "tarmoqlashtirgan" va uni mayda lokal operatsiyalardan barqaror oqimlarga aylantirgan. Demak, bu yerda faqat makroiqtisodiy sharoit emas, balki demografik omillar ham institutlashuvni tezlashtirgan.

Farg'ona vodiysida yashirin bozorning ishlashi ko'proq "tanish-bilish" tarmog'i va o'zaro kafolat tizimiga tayanganini ko'ramiz. Bu holat yashirin savdo anonim bozor emas, balki ijtimoiy kapitalga tayanadigan almashinuv ekanini kuchaytiradi. Bunda ishonch mexanizmlari faqat axloqiy norma emas, amalda tavakkalga asoslangan boshqaruv vositasi bo'lgan. Masalan, kim bilan savdo qilish, qachon va qayerda uchrashish, mahsulotni qanday bo'lib berish kabi qarorlar hatarni kamaytirishga xizmat qilgan. Shunday qilib, "yashirinlik" nafaqat huquqiy, balki kommunikativ va tashkiliy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi.

Mintaqaviy tarixshunoslikda Farg'ona vodiysi iqtisodiy hayoti ko'pincha agrar ishlab chiqarish, irrigatsiya, mehnat resurslari va sanoatlashuv jarayonlari bilan bog'liq holda yoritiladi [2; 2]. Agrar ishlab chiqarishning o'zi ham rasmiy reja va taqsimot bilan cheklanmagan, balki tomorqa, uy hunarmandchiligi va kichik miqyosli ortiqcha mahsulotlar orqali norasmiy aylanishga kirgan. Ayniqsa, bozor atrofidagi vositachilik amaliyotlari ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi masofani qisqartirib, ta'minotdagi uzilishlarni qisman kompensatsiya qilgan. Bu o'rinda "vositachi" obrazini faqat spekulativ rolg tenglashtirish ilmiy jihatdan soddallashtirish bo'ladi; u ko'pincha transport, axborot va riskni o'z zimmasiga olgan funktsional bo'g'in vazifasini bajargan.

Rossiya va xalqaro manbalarda sovet davridagi "yashirin iqtisodiyot" ko'plab tadqiqotlarda rasmiy tizimning ichki cheklovlari natijasi sifatida ko'rsatiladi [7]. Ushbu pozitsiya bilan uyg'un ravishda, Farg'ona vodiysi misolida ham yashirin bozor rasmiy tizimdagi nomuvofiqliklar bilan "birga yashagan" tizim ekanini ko'ramiz. Biroq biz aniqlagan tutashuv nuqtalari shuni anglatadiki, rasmiy va norasmiy sektorlar qat'iy devor bilan ajralmagan; ular amaliyot darajasida bir-biriga ulanib ketgan. Bu holatni institutsional nuqtai nazardan talqin qilsak, rasmiy qoidalar va amaliy qoidalar o'rtasidagi tafovut yashirin bozorni tug'dirgan va uni qayta ishlab turgan. Natijada yashirin bozor "parallel tizim" bo'lish bilan birga, rasmiy tizimning ayrim funksiyalarini norasmiy tarzda bajaruvchi "subsistema" sifatida ham ishlagan.

O'zbekistonda sovet davri iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarini yoritgan ayrim tadqiqotlarda mahalliy moslashuv,

mehnat va taqsimot masalalari, shuningdek, shahar va qishloq aloqalari muhim omil sifatida qayd etiladi [5; 4]. Tahlillarimiz natijasida, yashirin savdo kanallarining aynan shu aloqalar ustida qurilganini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, vodiyning ichki migratsiyasi, mavsumiy qatnovi va qarindoshlik tarmoqlari yashirin bozorning "infratuzilmasi" vazifasini bajargan. Bunda iqtisodiy motivlar ijtimoiy me'yorlar bilan doimo muzokarada bo'lgan: ayrim amaliyotlar mahalla doirasida "oqlangan", ayrimlari esa havfli va nomaqbul hisoblangan. Shunday qilib, yashirin bozorning ijtimoiy legitimatsiyasi bir xil emas, balki vaziyatga, tovar turiga va ishtirokchilar mavqeiga qarab o'zgarib turgan[10].

Shuni aytish mumkinki urush va urushdan keyingi yillarda tanqislik kuchayganda yashirin bozorning funktsional roli ortadi, bu xalqaro maydonda ham qayd etilgan umumiy qonuniyat bilan mos keladi. Biroq Farg'ona vodiysida ushbu funktsional rolning barqarorlashuvi, bir tomondan, agrar resurslar va mahalliy ishlab chiqarishning mavjudligi, ikkinchi tomondan esa bozor makonlarining tarixiy an'anasi bilan mustahkamlangan. Keyinchalik ko'rish mumkinki 1959-yilda qabul qilinib, 1995-yil 1-aprelgacha amalda bo'lgan Jinoyat kodeksida jinoyat deb hisoblangan 60 ga yaqin qilmishlar yangi Jinoyat kodeksiga kiritilmadi. Masalan, chayqovchilik uchun oldingi kodeksda javobgarlik belgilangan edi. Chayqovchilik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi oldingi kodeksning 175-moddasi yangi Jinoyat kodeksiga kiritilmadi[3;15]. Chayqovchilik endi jinoyat emas, balki tijorat hisoblanib, faoliyat turidan biriga aylandi Shunday qilib, yashirin bozorni "inqiroz mahsuli" sifatida emas, balki tarixiy bozor madaniyati va ma'muriy taqsimot cheklovlari kesishmasida vujudga kelgan moslashuv instituti sifatida ko'rish ilmiy jihatdan samaraliroq talqindir.

**Xulosa va takliflar.** 1930-1960-yillarda Farg'ona vodiysida mahalliy bozorlarning yashirin faoliyati ta'minotdagi uzilishlar va rasmiy narxlar bilan real qiymat o'rtasidagi tafovut sharoitida shakllanganini, vaqt o'tishi bilan esa barqaror amaliyotlar, ishonch tarmoqlari va vositachilik mexanizmlari orqali institutlashganini ko'rish mumkin. Yashirin bozorning asosiy funksiyasi aholi iste'moli va kundalik xo'jalik ehtiyojlarini moslashuvchan yo'l bilan qondirish, logistika va axborot bo'shliqlarini to'ldirishdan iborat bo'lgan. Ilmiy xulosa shundaki, yashirin savdo normativ chetlashuvdan ko'ra, ijtimoiy-iqtisodiy institut sifatida tahlil qilinib, uning ichki tuzilmalari, tovar guruhlari dinamikasi va rasmiy tizim bilan tutashuv nuqtalari konseptual ravishda ochib berildi. Amaliy jihatdan natijalar mintaqaning iqtisodiy tarixi, bozor madaniyati va kundalik hayot tadqiqotlarida mikrohududiy yondashuvning ahamiyatini kuchaytiradi. Kelgusida alohida shaharlar va tumanlar kesimida mikroarxiv materiallari, og'zaki tarix ma'lumotlari hamda transport va migratsiya yo'laklari bo'yicha chuqurlashtirilgan tadqiqotlar yashirin bozor mexanizmlarini yanada aniqroq rekonstruksiya qilish imkonini beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent, 24-yanvar 2020 yil.
2. Қосимов Н. Совет даврида Ўзбекистонда савдо ва бозор муносабатлари тарихи. Тошкент: Фан, 2008. 220 б.
3. Охунjonova Sh.Y. 1991-2020 yillarda Toshkent bozorlaridagi o'zgarishlar tarixi: Tarix bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Farg'ona, 2022. - B.150
4. Бобононов М. Ўзбекистонда шаҳар ва қишлоқ ўртасидаги иқтисодий алоқалар (1930–1950-йиллар). Тошкент: Университет, 2010. 196 б.
5. Исхоков Б. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги тарихи: 1925–1956. Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2009. 288 б.
6. Данилов В. П. Советская деревня в 1930-е годы: социальная структура и хозяйственные практики. Москва: РОССПЭН, 2001. 352 с.
7. Корнаи Я. Дефицит. Москва: Экономика, 1990. 608 с.
8. Fitzpatrick S. Everyday Stalinism: Ordinary Life in Extraordinary Times. New York: Oxford University Press, 1999. 304 p.
9. Hessler J. A Social History of Soviet Trade: Trade Policy, Retail Practices, and Consumption, 1917–1953. Princeton: Princeton University Press, 2004. 456 p.
10. Ledeneva A. Russia's Economy of Favours: Blat, Networking and Informal Exchange. Cambridge: Cambridge University Press, 1998. 240 p.